

OYBEKNING EPITET VA NEOLOGIZM YARATISH MAHORATI (“NAVOIY” ROMANI MISOLIDA)

Onarboyeva Xusnidaxon

SamPI O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida tayanch doktoranti

Oybek dahosining naqadar ulug'ligi, so'z qo'llash mahorati borasida uning zamondoshlari, qator tilshunos va adabiyotshunos olimlar maromiga etkazib fikrlar aytishgan. Jumladan, A.Qahhor shunday degan edi: “Yozuvchi umri yil bilan o'lchanmaydi – ijodiy samarasi bilan o'lchanadi. Oybek 400 yilga teng keladigan 40 yillik faoliyatining bir lahzasini ham samarasiz o'tkazgani yo'q. Oybek bu jihatdan ham hozirgi, ham ham kelajak adabiy avlod qarshisida ustod bo'lib gavdalanadi”.

Oybek o'zbek tilini g'oyatda qadrlagan va unga inson tafakkurining nihoyatda qudratli vositasi sifatida qaragan, uning favqulodda boy imkoniyatlaridan maromiga etkazib foydalana olgan buyuk so'z san'atkori sifatida ham namoyon bo'ladi.

“Asar yaratish kabi mushkul, og'ir ish dunyoda yo'qdir, deyman... chuqur his etish, qalbning qo'r hayajoni, o'tkir fikr, fahm, ajoyib ilhom... bilmadim, yana ko'p xislatlar kerak”, – deydi Oybek” (1, 156) Ma'lumotlar shuni tasdiqlaydiki, u biror bir asar yozish uchun juda katta ruhiy va ijodiy tayyorgarlik ko'rgan. “Navoiy” romanini qanday yozdim” maqolasini o'qigan kishi bunga ishonch hosil qilishi mumkin.

To'g'ri, adibning ona tilidan foydalana olish mahorati borasida o'zbek tilshunosligida, umuman uning ijodiga bag'ishlangan filologik tadqiqotlarda muayyan fikrlar aytili. Q.Samadov, A.Sabridinov, S.Boymirzayeva va boshqalarning kuzatishlarini misol tariqasida keltirish mumkin. Ammo, ikkinchi tomondan, bu ishlarni ham Oybek badiiyati tahlilida daryodan tomchi deb bermalol aytish mumkin. Nazarimizda, bu yo'nalishdagi ishlar hali davom ettirilishi, aytish mumkin bo'lsa, qat'iy bir reja asosida yirik hajmdagi lingvistik tadqiqotlar olib borilishi va ularning yakunida allomaning har bir asarining til xususiyati va bundan kelib chiqadigan yozuvchi uslubi muammolari hal etilishi, nashr etilgan mukammal asarlar to'plami asosida Oybek badiiy ma'naviy merosining izohli lug'ati tuzilishi maqsadga muvofiq

bo'ladi. Bu esa tilimizni chuqur o'rganish hamda o'zbek tili lug'at fondini boyishiga katta hissa bo'ladi.

“Yozuvchilar tilni xalqdan o'rganishi lozim. Xalq tili ajoyib uchirmalar va qochirimlarga boy bitmas-tuganmas asl manbadir” deydi Oybek, badiiy ijod bilan shug'ullanuvchilarga ushbu maslahatni taklif qilish bilan birga, e'tiqodiga ijod jarayonida o'zi ham qat'iy rioya qildi. Xuddi hazrat Mir Alisher Navoiy singari ona tilimizning qudratini amalda isbot qila oldi. Fikrimizni dalillash uchun “Navoiy” romani matniga murojaat qilamiz.

Avvalambor shuni qayd etamizki, Oybekning tasvir uslubidagi batafsillik, har bir detalni erinmasdan, barcha jihatlarini e'tibordan qochirmagan holda badiiy idrok etish va qog'ozga tushirish mahorati “Navoiy” romanida ham o'z ifodasini topgan. Roman shu darajada tasviriy ifodalarga boyki, XV asr muhitini, tarixiy shaxslarni, xususan, Navoiy shaxsini butun tafsiloti bilan yaqqol tasavvur qilishga yordam beradi. Ayni paytda bu tasavvurlar shunchaki oddiy tasavvur emas, balki badiiy mushohada mahsuli ekanligi, bu esa adibning badiiy tafakkur qalamining naqadar keng bo'lganligini his etib, kitobxonning hayratlanmasdan iloji qolmaydi. O'quvchi ham asar mazmunidan xabardor bo'ladi. Ham badiiy ta'sir oladi. Unday faktlar asarda talaygina. Fikrimizi dalillash uchun undan ayrim epitet – badiiy aniqlovchilarni keltirib, diqqatimizni romandagi yana bir muhim masalaga qaratamiz.

“O'zbek-fors tillaridagi **qurama shovqin** boshni gangitadi” [2.34], “Bozor kuni bo'lganidan ko'chalarda qatnov zo'r edi. Ot, eshak mingan dehqonlar, qo'ng'iroqlarini jaranglatib solmoqlagan qator tuyalar, kalava to'la savatlarini boshlariga qo'ygan kampirlar, matolarini qo'litiqlagan to'quvchilar va hokazo **qurama olomon** bozor tomonga oqardi” [2.51]. “Qurama shovqin”, “qurama olomon” birikmalari tarkibidagi qurama so'zi oddiy aniqlovchi emas, balki **tarixiy aralashuvni** (arab-fors), **milliy-siyosiy murakkablikni, muhitning ichki beqarorligini** ko'rsatuvchi “kalit so'z” sifatida maydonga chiqqan bo'lib, davr ruhini berishga xizmat qiladi. Yozuvchi romanda tilni tayyor vosita sifatida emas, balki yaratiladigan, kengaytiriladigan va estetik yuk orttiriladigan tizim sifatida qo'llaydi. Oybek tilida so'z shunchaki belgi emas — u xarakter, mafkura, ruh va davr tashuvchisidir.

Oybek romanida epitetlarning semantik kengayishi va abstraktlashuv jarayoniga guvoh bo‘lamiz. Epitetlar oddiy aniqlovchi vazifasini bajarib qolmaydi, balki obraz yaratish, ruhiy holatni konkretlashtirish va abstrakt tushunchalarni sezilarli shaklga keltirish vositasiga aylanadi. Yozuvchi sifatlash orqali insoniy belgilarni mavhum hodisalarga ko‘chiradi, moddiy tasavvurlarni ruhiy-axloqiy qatlam bilan boyitadi. Masalan: “*Mehnatga sira bosh bermas, har qanday mehnatni o‘zining ortiqcha sezgir izzat nafs uchun haqorat deb bilar edi*” [2.31] jumlasida “sezgir” epiteti, odatda, tirik mavjudotga nisbatan qo‘llanilib, jarohatlanishga moyil holatni bildiradi. Adib bu tushunchani “izzat-nafs” kabi abstrakt tushunchaga yuklaydi. Qolaversa, sezgir so‘zidan oldin ham “*ortiqcha*” epitetini qo‘llab, g‘urur va nafsoniyatning yuqoriligini “ortiqcha sezgir izzat-nafs” birikmasi orqali kitobxonga etkazadi. Yoki mana bu misolga diqqatimizni qaratsak: “*Uning xira ko‘zlari bu erda poyloqchilik qilgan baxtsiz boshqa bir ko‘p axta qullarniki kabi, hamisha ilojsiz g‘azab bilan yonar edi*” [2.178]. “*Ilojsiz g‘azab*” epiteti ham ana shunday semantik “chuqurlikka” ega. G‘azab, odatda, faol, portlovchi tuyg‘u sifatida tasvirlansa, “ilojsiz” sifati uni ichki bosim ostida qolgan, chiqish yo‘li topa olmagan ruhiy iztirob darajasiga olib chiqadi. Bu orqali axtalangan qullarning ruhiy holati yorqin bo‘yoqlarda ko‘rsatiladi, qahramon ichki dramtizmini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bunday misollar asar matnida ko‘p uchraydi: “*Ba’zi yaqinlaridan pardali shikoyat qildi*” [2.133] “Parda” moddiy predmet bo‘lsa-da, bu erda u yashirinlik, ochiq aytoymaslik, ehtiyotkorlik ma’nosini nozik ifodalanganiga guvoh bo‘lamiz. Yoki “*Hirotda ba’zi imoratlarning g‘oyat nafis naqshlari uning ijodi edi. Unda qidiruvchi fikr bor edi*” [2.171] jumlasida Mirak Naqqoshga ta’rif berilgan bo‘lib, fikr harakatdagi, izlanishdagi ong sifatida talqin qilinadi va obrazning nozik did egasi, improvozitsion aql sohibi ekanligi haqidagi ma’lumot anglashiladi. “Qidiruvchi” sifatdosh shakli abstrakt tafakkurni dinamik jarayonga aylantiradi. Bu

Quyidagi misolda esa abstrakt sifatlar joyga nisbatan qo‘llanilgan: “*Serzavq, oqsuyak Hirotda bu oltin misralarda ifodalangan ruh va kayf bilan yashamoqda*” [2.136]. “*Serzavq, oqsuyak Hirotda*” birikmasida shahar antropomorfizatsiya qilinib, insonga xos bo‘lgan sifatlar Hirotda shahriga ko‘chiriladi. Natijada shahar madaniy shaxs darajasiga ko‘tariladi: u estetik didga, aristokratik noziklikka ega makon sifatida gavdalanadi.

Yanada oydinlashtirsak, ana shu sifatlarni o'zida jamlagan insonlarni o'z ichiga olgan shahar sifatida ko'z oldimizda namoyon bo'ladi.

Quyidagi misolda esa, adibning kichik resurs bilan katta ma'noga erishganligiga guvoh bo'lamiz: *Qiz yigitning ko'ksidan boshini qutqarib, sochlarini to'g'riladi-da, erka araz bilan nariroq o'tirdi* [2.72]. Ushbu jumladagi "erka araz" birikmasi badiiy matnda psixologik holatni ifodalovchi emotsional-ekspressiv epitetli konstruksiya sifatida namoyon bo'ladi. Araz odatda salbiy emotsional holatni ifodalaydi. Unda ranjish, norozilik, ichki e'tiroz semalari mavjud. Biroq "erka" sifati ushbu salbiylikni yumshatadi va unga ijobiy, samimiy, "o'yinchan" kayfiyat yuklaydi. Natijada birikma sof salbiylikdan uzoqlashib, quyidagi qo'shimcha ma'no qatlamlarini hosil qiladi: **"nazokatli ranjish", "sevgi munosabatiga xos mayin norozilik" "e'tibor kutish holati, "ichki yaqinlikni inkor etmaydigan xafagarchilik"**. Demak, bu erda "erka" komponenti "araz"ning semantik maydonini kengaytirib, uni agressiv yoki keskin xafalikdan farqlaydi. "Erka araz" – bu munosabatning uzilishi emas, balki mustahkamligidan dalolat beruvchi psixologik o'yin shaklidir. Mazkur birikma qahramonning **ichki ruhiy holatini** ochib beradi. Qizning nariroq o'tirishi real masofani bildirsa-da, "erka araz" iborasi bu masofa vaqtinchalik va shartli ekanini ko'rsatadi. U sevgi munosabatidagi o'ziga xos quyidagi kommunikativ strategiyalarni ifodalaydi: **"e'tibor jalb qilish", his-tuyg'uni sinash", "mehrni tasdiqlatish istagi"**

Shunday qilib, "erka araz" nafaqat hissiy holatni, balki munosabat ichidagi nozik psixologik dinamika – yaqinlik va nazokatli masofalanish o'rtasidagi o'zaro o'yinni ifodalaydi. Birikma obraz xarakterini jonlantiradi. Qahramonning ayollik nazokati, hissiy nozikligi, sevgiga xos injiqligi bitta ixcham birikma orqali ochiladi. Muallif uzun tasvir yoki izoh bermasdan, ikki so'z orqali: *obrazning yoshligini, muhabbat muhitini, vaziyatning samimiyligini* ifodalay olgan. Mazkur epitet obrazning ichki psixologik holatini ochish bilan birga, matnning lirizm va emotsional rang-barangligini kuchaytiradi.

Darhaqiqat, Oybek asarlarida, xususan, "Navoiy" da bu kabi favqulodda original tasvir na'munalarining ko'pligi adib ijodi bilan tanish bo'lgan biror kishida shubha tug'dirmaydi. Biz **favqulodda** so'zini ham ustodga taqlid qilib qo'llamoqdamiz. Chunki

Oybekning o'zi bu so'zni ishlatishni juda ma'qul ko'rgan bo'lib, "Quyosh qoraymas", "Navoiy" romanlarida so'zning ma'no yukini bir qadar orttirgan: "*Shoirlik qudratini uning qo'lma-qo'l yurgan she'rlaridan bilgan, olimligi va insoniyligi haqida ayniqsa keyingi kunlarda hammaning og'zidan favqulodda qiziq, hayratbaxsh gaplar eshitgani bu shaxsning davlatda yuqori poyaga ko'tarilish xabari uni samimiy quvontirdi...*" [2.39]. **Favqulodda vajohatli**, bir ko'zi g'ilay yasovul qamchini qahr bilan silkib, chopib o'tarkan, Zayniddin qichqirib yubordi..." [2.75]. "*Boshida ko'kimtir shohidan sallacha va favqulodda uzun ko'ylak Xadichabegimning bo'yi-qomatini baland ko'rsatardi*" [2.182], "**Hamma favqulodda hayrat va hayajon ichida qoldi**" [2.146]. "**... Favqulodda katta xarajatlar uni qiynab qo'ygandi**" [2.64]. Bu so'z **dramatizmni oshirishga, psixologik keskinlikni ifodalashga** xizmat qilgan. Oybek favqulodda so'zini kuchaytiruvchi vosita sifatida emas, vaziyatga mos holatda ishlatadi. Yozuvchi bir xil shaklga turli kontekstda turlicha ruhiy intensivlik beradi.

Yuqorida aytib o'tilgan fikrlarimiz quyidagi misollarda turli ma'no nozikliklari ochib bergan "**ingichka**" so'zi uchun ham amal qiladi: "*Navoiy o'ttizdan oshmagan bo'lsa ham, yoshi ulug'roqdek ko'rinardi. Qomati o'rtadan baland, ingichka, lekin pishiq, barmoqlari uzun va nafis; qora va qisqa soqoli, xushbichim miyiqdari tekis va silliq; yonoqlari chiqiqroq, kenggina yuzida doimiy tafakkurning asl ma'nosi, ma'naviy qudrat va engil go'zallashtiruvchi bir horg'inlik jilvalanadi. Qabariq qovoqlari ostidagi qiyg'och ko'zlarida go'yo tafakkur va xayol bilan birga qandaydir iroda kuchi ifodalanadi*" [2.41]. Husayn Boyqaro belidan yuqorisi kengayib borgan, qabariq ko'krakli, keng yag'rinli, miqti gavdali edi. Yirik, qiyiq, o'tkir qarovchi ko'zlari iroda va **ingichka hiyla** bilan birga qandaydir beqarorlik, engil va sho'x tabiatni ham ifodalar edi" [2.53]. "*Mayning totini, zavqini ingichka anglaydi*" [2.128] "*She'rni yaxshi o'qiydigan va ingichka tushunadigan mansabdor Xo'ja Abdullo Marvoriy o'qib berdi*" [2.131]. "*U chiroyli narsalarni, ingichka san'at na'munalari bo'lgan buyumlarni sevar edi*" [2.138]. "*Ularning orasida ilm bilan san'atni birlashtirganlar, masalan, go'zal raqs etuvchilar musiqiyda kuylar yaratganlar, ingichka, mohir naqqoshlar ham bor edi*" [2.160]. "*– Haq so'zni aytsak, – dedi Navoiy jiddiy, lekin ingichka tabassum bilan, – biz uchun o'z tilimiz dilbardir, demak "Navoiy" dilbardir*"

[2.163]. “*Keyin Sultonmurod o‘zbek tilidagi rang, ma’no va hayol ingichkaligi*” va *hokazo jihatdan ulug‘ fors shoirlarining asarlaridan tuban emasligi haqida gapirdi* [2.165]. “*Ingichka zavqni ifodalagan bir qarash bir tur bilan tinglagan Navoiy suyunib baho berdi: “Siz she’rda hilol emas, to‘lin oy bo‘libsiz endi!”* [2.191]. Bu o‘rinda ingichka so‘zi estetik kategoriya sifatida fizik torlik ma’nosidan uzoqlashib estetik sezgirlik va ruhiy latofat – “ingichka zavq”, “ingichka san’at”, “ingichka tushunadigan”, “ingichka tabassum”, “hayol ingichkaligi” kabi birikmalar hosil qilishga xizmat qilgan. Bu o‘rinda “ingichka tabassum” oddiy kulgi emas, balki nozik ma’no va ichki fahm bilan boyigan ruhiy ifodadir. “Hayol ingichkaligi” esa tafakkurning nafislik darajasini anglatadi. Shunday qilib, Oybek birgina sifatni abstrakt estetik kategoriya darajasiga ko‘taradi.

Navoiy va Husayn Boyqaro portretini tasvirlashda ingichka so‘zi ozg‘in ma’nosini ifodalagan bo‘lsa, keyingi misollarda “nozik estetik did”, “intellektual sezgirlik”, “san’atni nozik anglash” ma’nolarini beradi. Oybek ushbu so‘zni abstrakt estetik mezonga aylantirib, bir so‘z ustiga turli ma’no nozikliklarini yuklaydi va individual muallif epiteti maqomiga olib chiqadi.

Bundan tashqari, Navoiy portretida “ma’naviy qudrat”, “tafakkurning asl ma’nosi”, “yengil go‘zallashtiruvchi horg‘inlik” kabi sifatlashlar tashqi belgini ichki ruhiyat bilan uyg‘unlashtiradi. Ayniqsa, “go‘zallashtiruvchi horg‘inlik” ziddiyatli semantik birlik bo‘lib, salbiy tusdagi charchoqni estetik nurlanish bilan birlashtiradi. Oybekning portret yaratish iste’dodi, tasvirdagi batafsillik alohida katta mavzu bo‘lib, bunga keyingi izlanishlarimizda batafsil to‘xtalib o‘tamiz.

Azamat so‘zi *favqulodda*, *ingichka* so‘zlari kabi Oybek romanlarida turli o‘rinlarda turli ma’no nozikliklari bilan epitet sifatida qo‘llanilishi bilan ahamiyatli: “*U hamma narsada ulug‘ bir kuchning go‘zal va azamat ohangini tuyganday bo‘lar edi*” [2.100]. “*Azamat peshtoq*” [2.102]. So‘z semantikasini kengaytirib, uni epitet sifatida qo‘llash Oybekning “tashrif qog‘ozi” desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Quyidagi misollarni fikrimizning isboti sifatida keltiramiz: “*Talabalar madrasaning tosh bag‘ri ichiga kirib g‘oyib bo‘ldilar*” [2.76]. “*Husayn Boyqaro jang maydonlarida bir necha topqir ro‘y-rost urushib, bahodirlik ko‘rsatgan edi*” [2.87]. Tosh bag‘r so‘zi, odatda an’anaviy

metafora sifatida insonga nisbatan qo'shma so'z shaklida qo'llaniladi. Ammo yozuvchi bu so'zni madrasaga ko'chirib, madrasaning toshdan barpo qilinganligi yoki uning ichida talabalalar uchun qattiqqo'l, beshafqat hayot borligiga ishora qilib so'z o'yini hosil qilmoqda. Keyingi misolda esa Oybekning faol leksikasi qatoriga qo'shishimiz mumkin bo'lgan *topqir* so'zi "marta" ma'nosida qo'llanganini kuzatishimiz mumkin.

Oybek so'z yasashda ham o'z uslubiga sodiq qoladi. Yozuvchi murakkab obrazlarni oybekona yasalmalar bilan bir zarbada ochadi: "*Bu g'azallarni o'qib, fors fusaxolari va o'zimizning forsiyaparastlarimiz ne deb og'iz ochishga jasorat qila olurlar*" [2.55]. Ushbu birgina so'zda "**mafkuraviy tanqid**", "**milliy pozitsiya**", "**ijtimoiy baho**" mujassam. Oybek oddiy "fors tilini sevuvchi" emas, balki "parast" — ko'r-ko'rona ergashuvchi insonlarni shu so'z bilan jazolaydi. Bu epitet xarakterga baholovchi, hatto kinoyaviy tus bersa, quyidagi misolda uning aksini — "qalbdan sevuvchi", "haddan ortiq oshno" ma'nosiga guvoh bo'lamiz: "*Men bu qilichni sen kabi tig'parast yigitga beramen. U shundayki, yaxshi tig'ni dilrabo ma'shuqasidan afzal ko'radi...*" [2.33]. Bir qo'shimchanning so'zlar tarkibida bir-biriga zid ma'no ifodalashga xizmatini Oybek qalamidagina uchratish mumkin. Shu kabi baholovchi semantik yukga ega bo'lgan, epitetlar orqali Oybek nafaqat tasvirlaydi, balki munosabat bildiradi, ijtimoiy-estetik mezonni belgilaydi.

Keyingi so'zlarga e'tiborimizni qaratamiz: Haddan ortiq ochko'z amaldorlarning ichki illatini *ajdarnafs* so'zi bilan metaforali sifatlagan bo'lsa, soxta shoirlarni *qofiyaboz* deya ataydi va bitta so'z bilan fosh qiladi: "*U hozirgi zamonda forsiycha yozadigan shoirlarning o'nda to'qqizi qofiyabozlar bo'lib, bir qismigina qadim ulug' shoirlarning ojiz taqlidchisi ekanini juda oson isbot qildi*" [2.108]. Oybek Navoiyni oddiy ijodkor emas, so'z ustasi, sehrigar darajasiga ko'tarib, *so'z sehrbozi* deya ta'rif beradi. Uning *ma'lumotfurush* emasligini ta'kidlab, ilmni ko'z-ko'z qiladigan, bilim bilan savdo qiladigan insonlarga zimdan "hujum" qiladi. "*U chinakam so'z sehrbozi*" [2.137]. "*Butun olimlar uning ma'lumotini jamiki ilmlarda juda chuqur ekaniga qoyil bo'lsalar, har erda tasdiqlasalar ham, Navoiy ma'lumotfurushlik etmas, ilm sohasida ko'proq o'z nuqsonlaridan gapirardi*" [2.160]. Qolaversa, bu so'z orqali ilmiy kamtarlik targ'ib qilinadi, haqiqiy ziyolilik mezoni belgilanadi. *Devkor, fikrchanlik,*

tajribakor, lutfkor, chorasoz kabi soʻzlarni “-kor”, “-soz” qoʻshimchalari orqali Oybek otni belgi-xususiyatga xususiyatni xarakterga aylantiradi. “*Bir necha kunda qalin bir devonni gʻalatsiz va goʻzal bitadigan devkor, chidamli xattotlar orasida obroʻ ham tanga qozonish ogʻir edi*” [2.149]. “*Uning koʻzlari har vaqtgi ishonch va fikrchanlikni saqlar edi*” [2.94]. “*Nainki Xoʻja Abdullo Xatibdek bir xomtama, ajdarnafsnig boshiga tushgan toshni saltanatga nisbat berursiz*” [2.96]. “*Kampir yaqin kelib, tajribakor qarash bilan qizni boshdan-oyoq nazardan oʻtkardi*” [2.176]. “*Podshoh uni aksar vaqtdagi kabi lutfkorlik bilan qabul qildi*” [2.196]. “*Toʻgʻonbek kabi gʻoyat ish koʻrgan, bahodir yigitlari bor. Yana shunday puxta, chorasoz odamlardan bir nechasini shaxzoda oʻz xizmatlariga olurlar*” [2.209]. Bu kabi neologizmlar asarda qator topiladi: “*Poytaxtning eʼtiborli odamlarini – sotqin beklar va amaldorlarni qoʻlga olib, oʻz birodarzodasini toʻsatdan Xuroson podshosi deb eʼlon qildi*” [2.105]. “*Nimqorongʻulik orasidan ularning harakatlarida jiddiy ishga oshigʻich ravishda tayyorgarlik koʻrayotganlari seziladi*” [2.90]. “*U bilan hambazm, hamtabaq boʻlganlar bor*” [2.124].

Aslida oʻzbek tilida bunday yasama soʻzlar koʻp. Uni muomalaga kiritishga daʼvo qilish ham oʻrinsiz. Ular faqat shu matndagina, Oybek tilidagina mana shu shaklda qoʻllangan. Ammo tarixiy muhitni kitobxon koʻz oʻngida jonlantirishda, Navoiy shaxsini ochib berishda oybekona vositaga aylangan. Boshqa bir holatda bu darajadagi badiiy ahamiyat kasb eta olmasligini inobatga olgan holda bu yasalmalarni Oybek badiiy tafakkurininggina mahsuli deb ayta olamiz.

Oybek ijodkorning xalq tilidan foydalanishda alohida masʼuliyatni nazarda tutishini uqtirdi. Ayni vaqtda yozuvchi tilga ijodiy yondashsa, uning xizmatlari xalq tili taraqqiyotiga taʼsir etishini ham taʼkidladi: “... tilning... boyishida, ifoda va soʻzlarning aniqlanishida, fikrlarni aniq va qabariq bera bilishida adabiyotning, demak, sanʼatkorlarning katta xizmatlari boʻladi”. Bu esa badiiy qalamning moʻjizakorligini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega.

Shu jihatdan olib qaralganda, “Navoiy” romani ana shunday masʼuliyat bilan yozilgan, yozuvchining individual til uslubini yaqqol koʻrsatib bera olgan asar

hisoblanadi. Adib o'zbek tilida mavjud so'z boyliklarini qayta ijodiy idrok qilishga, rivojlantirishga, ma'nolarini kengaytirishga harakat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, Oybekning til mahorati so'z semantikasini maksimal kengaytirish, individual epitet yaratish, birgina so'z orqali orqali xarakter ochib bera olish, tasvirdagi batafsillik, ipidan ignasigacha erinmay tavsiflash, portret yaratishda tashqi ko'rinish orqali, ayniqsa ko'zlar tasvirida qahramon fe't-atvorini va psixologik holatini chizish, so'z yasash imkoniyatlaridan keng foydalanishda namoyon bo'ladi. Oybek tilida so'z shunchaki belgi emas — u xarakter, mafkura, ruh va davr tashuvchisidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adabiyotimiz avtobiografiyasi. – T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1973.
2. Oybek. Navoiy. – T.: Ilm-ziyo zakovat, 2020.
3. Boymirzayeva S. Oybek prozasining lingvostilistik tadliyi: Filol.fan.nomz. ...dis.avtoref.- Samarqand, 2004.